

### 2020– yilning yanvar – mart oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 034,8 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar– 1 950,9 mlrd. so‘mni (102,9 %), o‘rmon xo‘jaligi– 77,2 mlrd. so‘mni (101,9 %), baliq xo‘jaligi– 6,7 mlrd. so‘mni (104,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.



2 034,8

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha  
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi  
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

01



**1 950,9 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan**

02




**77,2 O‘rmon xo‘jaligi**

03




**6,7 Baliq xo‘jaligi**

**Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)**



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2020– yilning yanvar – mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,9 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,8 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,3 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


### Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020– yilning yanvar – mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Chiroqchi (260 mlrd. so‘m) va Kitob (196 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shahrisabz shahri (10 mlrd. so‘m), Qarshi shahri (38 mlrd. so‘m) va Mirishkor tumanini (101 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (102,8 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Muborak (105,8 %), Shahrisabz (104,2 %) va G‘uzor (104,0 %) tumanlarida kuzatildi. Qarshi shahri (97,6 %), Nishon (100,4 %), Qarshi (101,2 %), Mirishkor (101,7 %), Yakkabog‘ (102,2 %), Koson (102,6 %), va Dehqonobod (102,6 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 945,0 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 147,6 mlrd. so'mni (103,6 %), chorvachilik mahsulotlari– 1 797,4 mlrd. so'mni (102,8 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

7,6 %  
Dehqonchilik  
mahsulotlari




92,4%  
Chorvachilik  
mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 89,0 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,8 % i – fermer xo'jaliklariga, 3,2 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2020–yilning yanvar – mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi va Yakkabog' tumanlarida (17,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Nishon tumanida (97,3 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qarshi shahrida (8,6 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Chiroqchi va Muborak tumanlarida (1,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Yakkabog' tumanida (78,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Nishon tumanida (0,6 %) qayd etildi.




## Dehqonchilik


2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 147,6 mlrd. soʻmni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 7,6 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar


Hajmi, t.



Oʻsish surʼati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 3 196 t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 5,6 % ga koʻp) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
sabzavotlar  
yetishtirish hajmi, t.






## Chorvachilik



2020– yilning yanvar– mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1 797,4 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,4 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,3 ming t. go‘sh t (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 2,5 % ga ko‘p), 137,7 ming t. sut (3,7 % ga ko‘p), 90,6 mln. dona tuxum (2,8 % ga ko‘p), 59,7 ming dona qorako‘l teri (0,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 356,6 t. baliq (5,2 % ga ko‘p) ovlandi.

## Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,3 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 2,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
go'sht (*tirik vaznda*)  
yetishtirish hajmi, tonna**




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 137,7 ming t. sut (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
sut yetishtirish  
hajmi, t.**




## Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 90,6 mln. dona tuxum (2019– yilning yanvar– martiga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 60,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.






Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
olingan tuxum  
hajmi, ming dona




## Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 356,6 tonna (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 5,2 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 90,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, tonna



### Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,8 % i fermer xo'jaliklariga, 88,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 9,6 % i fermer xo'jaliklariga, 86,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,3 % i fermer xo'jaliklariga, 70,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 581,1 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 7,8 ming boshga (0,5 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati**



**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Qashqadaryo viloyati  
bo'yicha yirik shoxli  
qoramollarning umumiy  
bosh soni, ming bosh






2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 517,3 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 2,8 ming boshga (0,5 %) ko‘paydi.

## Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati**




**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 4 581,1 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 54,5 ming taga (1,2 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar


**Soni, ming bosh**



**O‘sinh sur‘ati**



**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 88,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 32,2 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 556 boshga (1,8 %) ko‘paydi.

## Otlar


**Soni, bosh**



**O‘sish sur‘ati**



**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 86,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



**Qashqadaryo viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiy bosh soni, bosh**






2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5950,3 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 39,9 ming boshga (0,7 %) ko‘paydi.

## Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati**




**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 70,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
parrandalarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 75-221-34-46  
• 75-220-04-15